



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

O`ZBEK AYOLINING OILADA TUTGAN O`RNI VA AYOLLAR UCHUN YURTIMIZDA YARATILGAN KENG IMKONIYATLAR ESHIGI

Buxoro viloyati G'ijduvon tuman 3- son kasb- hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi

Islombek Jalilov

Annostatsiya: *Ushbu maqolada o`zbek ayolining oilada tutgan o`rni va ayollar uchun yurtimizda yaratilgan keng imkoniyatlar haqida fikr yuritiladi*

Kalit so'zlar: *Ayol, Amir Temur, Muhabbat, Bibixonim, Saroymulxonim, Gloriya Heynem, feminist, global*

Ayol va bahor degan muqaddas kalamlar bejizga yonma-yon yozilmaydi. Biz bahorning kelishi va uning beqiyos go'zalligini munis ayollarimizning gulgun chehralariga qarab bilib olamiz.

Ayolning nafasati va nazokati, fidoiyligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot davomiyligi va abadiyligiga asos bo'lib keladi.

Xalqaro xotin-qizlar kunining ildizi ayollarning erkaklar bilan teng ravishda jamoat hayotida ishtirok etish huquqi uchun ko'p asrlik kurashiga borib taqaladi. Xalqaro xotin-qizlar kuni-bu ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy yutuqlariga bag'ishlangan global kun. Xalqaro miqyosida taniqli feminist, jurnalist va jamoatchilik harakati faoli Gloriya Heynem bu kunni bir paytlar shunday tushuntirgan edi „ Ayollarning tenglik uchun kurash tarixi hech qanday feministik targ'ibotga yoki biror davlat, tashkilotga tegishli emas, balki inson huquqlari bilan shug'ullanadigan barcha odamlarning jamoaviy harakatlaridir“. 8-mart kuni dunyoning qator davlatlarida bayram sifatida nishonlanadi. Jumladan: O'zbekiston hududida ham bu kunning tarixi haqida turli-tuman taxminlar va afsonalar yuradi. Masalan, 1913-yildan e'tiboran Xalqaro ayollar kuni 8-martga ko'chirildi. Avval bu bayram 23-fevralda nishonlangan. , 1914-yil boshida Xalqaro xotin-qizlar kuni birinchi marta rasmiy sifatida kiritiladi.

2000-yildan boshlab dunyoning aksari davlatlarida xalqaro ayollar kuni rasmiy bayram sifatida qabul qilindi. Dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari qatorida

O'zbekiston Respublikasida ham ayollar va bolalarga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Mehnat qonunchiligida ayollarga alohida huquq va erkinliklar berilgan. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Respublikamizda ayollarning har qanday sohada faol ishtiroki kafolatlangan hamda ularning erkinliklari davlat himoyasidadir. Ayol azaldan mehr-shafqat va sadoqat timsoli bo'lib kelgan. Ayolni e'zozlash- bizning millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyatdir.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Chunki ayollarni qanchalik ulug'lasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz.

Ayol - muhabbat va go'zallik timsoli

Ayol - borliq ko'zgusi. Uning go'zalligi olamni charog'on etadi, chunki uning niyati pok, o'zi pok. Shu bois, uni avaylab, asragan yurtning kelajagini porloq deb naql qilishadi. Shu ma'noda, buni O'zbekistonimizga va uning biri-biridan latofatli, oqila o'zbek ayollariga nisbat qilsak, xato bo'lmaydi. Bu bejiz emas. Zero, onalarning, ayollarimizning baxti-oilalarimiz, xalqimiz, ona Vatanimizning baxti, saodatidir..

Darhaqiqat, mamlakatimiz taraqqiyotini, jamiyatimiz rivojini ayollarsiz, ularning faol ishtirokisiz tasavvur eta olmaymiz. Shu bois yurtimizda ayol huquqi, erkinligi, tengligi eng oliy, muqaddas qadriyat darajasiga ko'tarildi. Bir so'z bilan aytganda, ayolga izzat-hurmat, e'zoz-ehtirom ko'rsatish - millatga ehtirom ko'rsatishning bosh omiliga aylandi.

Tadbirda eng faol tashabbuskor va shijoatli ayollar kompaniya rahbariyati tomonidan taqdirlandilar. Bayram dasturi muhtaram ayollar qalbiga bahoriy kayfiyat baxsh etish maqsadida O'zbek estradasining mashhur vakillari ishtirokidagi kotsertga ulanib ketdi. Unda yangragan xush taronalar va bayram chiqishlari yig'ilganlarga birdek manzur bo'ldi. Tadbir so'ngida bayramga tashrif buyurgan barchaga sovg'alar ulashildi.

ONA, AYOL!.. Odamzot o'zini taniganidan beri bu sirli va ajib xilqatga ta'rif va ta'bir topolgani yo'q! Har bir qalb Muhabbat tuyg'usini o'zicha yangilagani kabi Ayolga nisbatan tavsiflar har safar yangilanaveradi. Lekin, hech qachon o'zgarmaydigan bitta ilohiy haqiqat bor: Yaratgan egam Uni ONA degan yuksak maqom bilan siylagan. Bejiz Ona Vatan, Ona tabiat, Ona tili, Ona tuproq, deya uning muqaddas va muhtamligiga alohida urg'u berilmaydi. Ne-ne ulug' avliyo-yu piri komillar, alloma-yu donishmandlar ham Ayol sha'niga qiyos axtarib o'tganlar.

Ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ham ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilangan. Ayolni e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish Sharq xalqlariga, jumladan, o'zbek xalqiga xos xususiyatdir. Muborak hadisi sharifda keltirilgan "Jannat onalar oyog'i ostidadur", "Avval onangizga, yana onangizga, va yana onangizga, so'ngra otangizga yaxshilik qiling", degan benazir so'zlarda ham ana shu adoqsiz ehtirom namoyon bo'lib turibdi.

Millat ayollarni nechog'lik ulug'lasa, uning o'zi ham shunchalik ulug'lanadi. Xalqimizda "Er vaziri-xotin", degan naql bor. Bu o'rinda Ayol, o'z jufti-halolining yaqin maslakdoshi, o'z fikri va qarashlariga ega shaxs, yetakchiga yo'l ko'rsata olish qobiliyatiga ega oqila, orifa inson sifatida namoyon bo'lmoqda.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Ta'kidlash joiz, Amir Temur hukmronligi yillarida ham ayollarning mavqei yuksak bo'lgan.

Xon avlodiga mansub Saroymulxonim haramdagi barcha malikalardan ulug'rog'i hisoblanib, "katta xonim" yoxud "Bibixonim" degan unvonga noil bo'lgan. Davlat va mamlakat idorasiga oid qurultoy, kengash ishlarida to'g'ridan-to'g'ri qatnashish huquqi bo'lmagani holda Saroymulxonim u yoki bu masala yuzasidan Amir Temurga yozma tarzda murojaat etish imkoniga ega shaxslardan biri bo'lgan. Odatda xat bilan davlat boshlig'iga murojaat etish huquqiga faqat chet ellik hukmdorlar ega ekanligini inobatga olsak, Saroymulxonimning saroydagi mavqeyi naqadar baland bo'lganligini idrok etish qiyin emas.

Ayolni, onani ardoqlash va qadrlash, hurmatini joyiga qo'yishdan iborat Temur va Temuriy qadriyatlar mustaqillik yillarida yangicha mazmun bilan boyidi. Yurtimizda xotin-qizlarning davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya ishlari, tadbirkorlikda faol ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Fikrimizning yorqin tasdig'ini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakat xotin-qizlariga nisbatan munosabatida ham ko'rish mumkin. Chorak asr davomida ayollarni qadrlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, davlat siyosati darajasida turgan ustuvor masala bo'lib kelgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan qonunlarimizda ayollar huquqlariga inson huquqining alohida ajralmas qismi sifatida qarala boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deya e'tirof etilishi mamlakatimizda ayollar jamiyatning faol a'zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishining huquqiy kafolati belgilanganidan dalolat beradi. Shuningdek, davlatimiz inson huquqlari bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlarga, jumladan, 1995 yili «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Konvensiyaga qo'shilishi ham mamlakatimizda xotin-qizlar masalasiga jiddiy e'tibor berilganini ko'rsatadi.

1993 yil mart oyida Mustaqil O'zbekistonning birinchi ordeni ta'xis etilgan va u bevosita ayollarning manfaati bilan bog'liq, "Sog'lom avlod uchun" ordenidir. 1995 yil mart oyida Prezidentning "O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni e'lon qilinadi. Ushbu farmon asosida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga Bosh vazirning o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga Qoraqalpog'iston Vazirlar kengashi raisining o'rinbosari, Toshkent shahri va viloyatlar hamda tuman-shahar Xotin-qizlar qo'mitalari raislariga hokim o'rinbosari



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

maqomi beriladi. Shu vaqtga qadar ayollarning jamiyatdagi o'rne va maqomi bu qadar yuksak darajaga ko'tarilishini hatto tasavvur ham qilib bo'lmas edi. Bu yillar ayollarimiz uchun hech mubolag'asiz uyg'onish davri bo'ldi.

1999 yil Birinchi Prezidentning farmoni bilan ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish, har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini yana bir bor e'tirof etish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san'at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, jamiyat hayotidagi faol ishtirokini rag'batlantirish maqsadida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

1999 yil "Ayollar yili", 2000 yil "Sog'lom avlod" yili, 2001 yil "Onalar va bolalar" yili, 2005 yil "Sihat-salomatlik yili", 2012 yil "Mustahkam oila yili", 2013 yil "Obod turmush yili" deb e'lon qilinishida va shu munosabat bilan amalga oshirilgan ezgu ishlar, tadbirlar zamirida ham ayolga hurmat, ehtirom, jismoniy kamoloti xususida fikrlash, qayg'urish hissi mujassamligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Mamlakatning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu - fan, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarida ayollarning o'rne va roli ortib borganini kuzatish mumkin.

Yaqinda e'lon qilingan dunyo parlamentlaridagi ayollar reytingida O'zbekiston, 193 mamlakat ichida, milliy parlamentdagi ayollar soni bo'yicha 126 pog'onada qayd etilgan. Ma'lumotlar 2015 yil ko'rsatkichlariga asoslangan bo'lib, o'sha yili Oliy Majlis deputatlarining 100 nafaridan 17 nafari (17%) ayollar bo'lgan.

Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili - Ombudsman lavozimiga hamda Parlamentning Qonun chiqaruvchi palatasi Spikeri lavozimiga ayol kishining nomzodi loyiq, deb topilgani ham ko'p narsani anglatadi. Barchamizga g'urur bag'ishlaydigan yana bir ko'rsatkich, O'zbekiston Qahramonlari orasida 15 nafari ayollardir. Bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Islom Karimovning ayollarga nisbatan hurmat va e'tiborini har qadamda kuzatish mumkin edi.

Oila va ayolning ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga ta'siri haqida Islom Karimov shunday degan edi: «Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik,

2022 - 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur hamda uni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasining ijrosini ta'minlash maqsadida "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida olima va oqila ayollarning o'rne" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Tadbirda senatorlar, deputatlar, oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat olib boruvchi olima ayollar, xotin-qizlar jamoat



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

tashkilotlarining rahbarlari, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi vakillari, Toshkent moliya institutining olima ayol professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Davlatimiz rahbari boshchiligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi M.Qodirxonova so'zga chiqib, xalq muhokamasiga taqdim etilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi, unda yoshlar, bolalar va ayollar haq-huquqlarini kafolatlash borasida kiritilgan yangi normalarga alohida to'xtaldi.

Shuningdek, tadbirda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda oqila va olima ayollarning roli, O'zbekiston yosh olimalarining ilm-fanga qo'shayotgan hissasi, ilm-fanda gender tenglikni ta'minlash, uzoq hududlarda yashovchi xotin-qizlarning ilm-fandagi faolligini oshirish, oliy ta'lim tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, fan va innovatsiyalar taraqqiyotida olima ayollar ilmiy salohiyatidan foydalanish kabi masalalar muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, yurtimizda fidokorona mehnat qilayotgan xotin-qizlarning ulushi tibbiyotda 77 foizni, ta'lim sohasida 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etmoqda. Agar 2017-yilda xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda 33 foizga, siyosiy partiyalar safida 40 foizdan 47 foizga, tadbirkorlikda 21 foizdan 37 foizga yetdi.

Bilimli, tashabbuskor va faol ayollarimizdan 2 ming nafarga yaqini davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilmoqda. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat a'zolari hamda mahalliy Kengashlar deputatlarining 25 foizi xotin-qizlardan iborat.

Ilmiy-amaliy anjuman davomida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda oqila va olima ayollarning o'rnini mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi hamda ularni amalga oshirish uchun vazifalar belgilab olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asari